

## O‘ZBEK TILINING “KASALLIGI”: IMLOVIY XATOLARNI DAVOLASH VAQTI KELDI

**Gulsevar Azimova**

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti*

*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Imloviy xatolar – bu tilimiz rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi jiddiy illatdir. Unga qarshi kurashish har bir fuqaroning madaniy va ma’naviy burchidir. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi imloviy xatolarning kelib chiqish sabablari, ularning jamiyatdagi oqibatlari hamda yechim yo‘llari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *imlo, lug‘at, yozma nutq, til islohoti, savodxonlik.*

Til – millatning jon tomiri, uning tarixiy xotirasi va kelajak garovidir. Har bir xalqning rivoji, madaniyati hamda jahon maydonidagi o‘rni, avvalo, uning tiliga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. O‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lganidan faxrlanamiz. Ammo so‘nggi yillarda jamiyatimizda, ayniqsa raqamli muloqot muhitida, tilimizning eng nozik sohasi — imlo qoidalariga nisbatan beparvolik kuchaymoqda. Afsuski, bu xatolar kundalik hayotimizda, reklama bannerlarida, ommaviy axborot vositalarida, hatto ta’lim tizimida ham uchramoqda. Shunday holatda tilimiz “kasallik”ka chalingan deyish mubolag‘a emas. Agar bu holat vaqtida “davolanmasa”, adabiy tilimizga, demakki, milliy o‘zligimizga katta zarar yetadi.

Dastlab imloviy xatolarning sabablari haqida fikr yuritsak. Tilimizdagi imloviy xatolarning ildizi bir necha omillarga borib taqaladi. Birinchidan, turli nashrlardagi imlo lug‘atlarida ayrim so‘zlarning yozilishida farqlar mavjudligi chalkashlik keltirib chiqarmoqda. Masalan, “O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati”da “oktabr” va “oktyabr” kabi ikki xil variantning mavjudligi o‘quvchi va yozuvchilar orasida ikkilanishni kuchaytiradi[1]. Ikkinchidan, maktab davrida o‘quvchilarda so‘zlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmayapti. Ba’zi o‘qituvchilarning “baribir tushuniladi” degan beparvo munosabati esa xatolarning ildiz otishiga sabab bo‘lmoqda. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Instagram, Facebook va boshqalar) tezkor yozishmalar natijasida “chopib yozish” usuli paydo bo‘ldi. Bu holat norasmiy muloqotdan chiqib, rasmiy yozuvlar va hatto ta’lim muassasalariga ham kirib bormoqda. Imloviy xatolarning ko‘payishiga yana bir omil- chet tillaridan kirib kelayotgan so‘zlarning imlosini adabiy me’yorlarga moslashtirishdagi muammolardir.

Imloviy xatolar qanday oqibatlarga olib keladi? Imloviy xatolar – bu shunchaki yozuvdagi xatolik emas, balki madaniyatimizga bo‘lgan hurmatning susayishidir. To‘g‘ri

imlo – milliy o‘zlik va madaniy savodxonlikning ko‘zguvidir. Noto‘g‘ri yozish esa ona tilimizga befarqlik, e‘tiborsizlik va qadrsizlikni bildiradi. Bundan tashqari, imloviy xatolarning gazeta, jurnal, o‘quv qo‘llanmalari va kitoblarda uchrashi ularning sifatiga putur yetkazadi, nashrning ilmiy va madaniy obro‘sinini pasaytiradi. Yaqinda yoshlar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Uning natijasiga ko‘ra, ularning 70 foizi imloviy xatolarning asosiy sababi sifatida “tez yozish”ni, 22 foizi “imlo qoidalarini to‘liq bilmaslik”ni, qolgan 8 foizi esa “telefonlar klaviaturasidagi avtomatik tuzatish mavjudligi”ni aytishdi. Bu esa noto‘g‘ri yozish nafaqat bilim, balki texnologik omillar bilan ham bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bu “kasallik”ni davolash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Yagona imlo me‘yorlarini ishlab chiqish va barcha sohalarda bir xil qo‘llash.
2. Maktablarda imlo qoidalarini mustaqil fan sifatida o‘qitish.
3. Ommaviy axborot vositalarida imlo madaniyatini targ‘ib etuvchi maxsus ko‘rsatuv va loyihalarni yo‘lga qo‘yish.
4. Tashqi reklama vositalarida so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish.
5. Noto‘g‘ri yozilgan banner yoki peshlavhalar uchun ma‘muriy javobgarlik joriy etish.
6. Yozish savodxonligini oshirish uchun mo‘ljallangan mobil ilova yaratish. (Masalan, “Bexato yozamiz” kabi interaktiv o‘yinlar orqali barchamiz to‘g‘ri yozish bo‘yicha mukammal bilimlarni egallashimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, til – millatning ruhi, imlo esa uning ko‘zguvidir. To‘g‘ri yozish nafaqat savodlilik, balki milliy g‘urur va madaniy e‘tiqod ifodasidir. Imloviy xatolarni bartaraf etish orqali biz ona tilimizning pokligini asraymiz, xalqimizning madaniy darajasini yuksaltiramiz va kelajak avlodga sof, adabiy o‘zbek tilini meros qilib qoldiramiz. Har bir to‘g‘ri yozilgan so‘z- milliy o‘zlikni asrash sari tashlangan muhim qadamdir. Demak, endi “imloviy kasallik”ni davolash vaqti keldi!

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati. – Toshkent: “Kafolat print kompaniyasi” nashriyoti, 2023.
2. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.- Toshkent: “Akademnashr” nashriyoti, 2013.